

MOVOROUNNAHRDA SHAYBONIYLAR SULOLASI HUKUMRONLIGI TARIXINING O‘RGANILISHI

Rayimova Sevinch Ihtiyor qizi

Toshkent amaliy fanlar universiteti talabasi

tel: +998950705138

e-mail pochta manzil: sevinchrayimova03@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada Movorounnahrda Shayboniylar sulolasi hukumronligi davrining o‘rganilishi manbashunoslik va tarixshunoslik asosida tahlil qilingan. Shayboniylar davri haqida ma’lumot beruvchi mahalliy va xorijiy yozma manbalar, farmonlar, yorliqlar va diplomatik hujjatlar kabi amaliy manbalar tahlil qilingan. Shayboniylar tarixining o‘rganilish bosqichlari – o‘rta asr mualliflarining asarlari, XIX-XX asr olimlari ishlari va mustaqillik davridagi zamonaviy tadqiqotlari ilmiy jihatdan o‘rganilgan va tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Movorounnahr, Xuroson, fors-tojik tili, turkiy (eski o‘zbek yoki chig‘atoy) tili, Jo‘ybor xo‘jalar, Bo‘riboy Ahmedov, Akbar Zamonov, Armeniy Vamberi.

Аннотация: В статье на основе источниковедческого и историографического подходов проанализировано изучение периода правления династии Шайбанида в Мавераннахре. Рассмотрены местные и зарубежные письменные источники, содержащие сведения о шайбанидах, а также такие практические источники, как фирманы, ярлыки и дипломатические документы. Научно исследованы и проанализированы этапы изучения истории шайбанидов, включая труды средневековых авторов, исследования ученых XIX–XX веков и современные работы периода независимости.

Ключевые слова: Мавераннахр, Хорасан, персидско-таджикский язык, тюркский (староузбекский или чагатайский) язык, Ходжаберди-хожа, Бури-бой Ахмедов, Акбар Замонов, Арминий Вамбери.

Abstract: The article analyzes the study of the period of rule of the Shaybanid dynasty in Mawarannahr on the basis of source studies and historiographical approaches. Local and foreign written sources providing information on the Shaybanids, as well as practical sources such as decrees, charters, and diplomatic documents, are examined. The stages of studying Shaybanid history—including the works of medieval authors, studies by scholars of the 19th–20th centuries, and contemporary research conducted during the independence period—are scientifically investigated and analyzed.

Keywords: *Mawarannahr, Khorasan, Persian-Tajik language, Turkic (Old Uzbek or Chagatai) language, Khojabardi Khoja, Buriboy Ahmedov, Akbar Zamonov, Arminius Vambéry.*

Movorounnahrda XVI asrda yuz bergan tarixiy voqealar haqida ma'lumot beruvchi manbalar tadqiqotchi olimlar tomonidan turli maqsad va vazifalar orqali o'rganilgan. Hozirgi kunga qadar olimlar Shayboniylar sulolasi tarixining o'rganilishi, o'sha davr davlat boshqaruvi, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy jarayonlari to'g'risida o'z fikr va mulohazalarini bildirishgan. Shayboniylar sulolasi davri tarixiga oid manbalarni (ushbu manbalar keyinchalik o'zbek, rus, ingliz va aboshqa xorijiy tillarga ham tarjima qilingan) qaysi tilda yaratilganligi va turiga qarab quyidagi uch guruhga ajratish mumkin:

1-guruh. Fors-tojik tillarida yozilgan manbalar.

2-guruh. Turkiy (eski o'zbek yoki chig'atoy) yaratilgan asarlar.

3-guruh. Turli davlatlardan kelgan sayyohlarning esdaliklari¹²⁰.

Shayboniylar davridagi ijtimoiy-siyosiy, madaniy jarayonlar haqida ma'lumot beruvchi asarlar asosan fors tilida yozilgan. Mulla Shodiy "Fathnoma", Kamoliddin Binoiy "Shayboniynoma", Fazlulloh ibn Ro'zbehxon "Mehmonnomayi Buxoro", Mirza Haydar "Tarixi Rashidiy", G'iyosiddin Xondamir "Habib us-siyar", Hofizi Tanish Buxoriy "Abdullanoma", Muhammadiyor ibn Arab Qatag'on "Musaxxir al-bilod", Ma'sud ibn Usmon Ko'histoniy "Tarixi Abulxayrxoniy", Zayn ad-Din Vosifiy "Badoe' ul-vaqoe'", Mahmud ibn Valining "Bahr ul-asror" kabi asarlari shular jumlasidandir¹²¹. Ushbu asarlar XVI asrlarda Shayboniylar sulolasining hokimiyat tepasiga kelishi, O'zbek ulusi va Movorounnahr hududida yuz bergan muhim siyosiy-harbiy, diniy-ma'naviy hayot, madaniyat sohasida yuz bergan voqealar mualliflarning kechinmalari asosida yozilgan. Hofizi Tanish Buxoriyning "Abdullanoma" asari o'sha davr tarixini o'rganish borasida, Shayboniylar sulolasi va uning keyingi avlodlari haqida ma'lumot beruvchi muhim manbalardan hisoblanadi. Tarixchi olimlar tomonidan "Sharafnomayi shohiy" deb ham tilga olinadi. XVI asrdagi O'zbekiston, Qozog'iston, qisman Avg'oniston va Eronning ijtimoiy-siyosiy tarixi bayon qilingan. "Abdullanoma" asarida siyosiy voqealardan tashqari iqtisodiy masalalar ham bayon etilgan bo'lib, o'sha davrda yer egaligining turlari, soliqlar va jarimalar, asirlarni qullarga aylantirish, O'zbekistonning yirik shaharlari va

¹²⁰ O'zbekiston tarixi. III qism: Temuriylar, shayboniylar va ashtarxoniylar davri. / Darslik. Zamonov A. – Toshkent: "Bayoz", 2023. – B. 346.

¹²¹ O'zbekiston tarixi. III qism: Temuriylar, shayboniylar va ashtarxoniylar davri. / Darslik. Zamonov A. – Toshkent: "Bayoz", – B. 347.

hunarmandchilik, Shayboniylar davlati mamuriy tuzilishi, Buxoro xonligining Rossiya, Hisdiston va Koshg'ar bilan munosabatlari aniq va dalillar asosida yoritilgan¹²².

Shayboniylar davri haqida ma'lumot beruvchi turkiy tilda yozilgan manbalar XVI asr harbiy tarixiga oid, tarixiy-geografik va badiiy asarlar mavjud bo'lib, Zahiriddin Muhammad Bobur "Boburnoma", Muhammad Solih "Shayboniynoma", Abdulloh Nasrullohiy "Zubdat ul-osor", Abulg'oziy Bahodirxon "Shajarayi turk" "Tavorixi guzida, nusratnoma" asarlari shular jumlasidandir. Ushbu asarlar olimlar tomonidan turli talqinlar va asoslar orqali tahlil qilingan. Ushbu asarlar orasida Muhammad Solihning "Shayboniynoma" asari Shayboniixonning hayoti va olib borogan urushlari haqida ma'lumotlar beruvchi qimmatli asar bo'lib, Movorounnahr va Xorazmning ijtimoiy-siyosiy hayoti, ko'chmanchilarning yurushlari, xalqning og'ir ahvoli, Qorako'l, Qarshi va Xuzorda Shayboniylarga qarshi qo'zg'olonlar aks etirillgan¹²³.

Shayboniylar davri haqida ma'lumot beruvchi asarlar rus va yevropalik sayyohlar tomonidan mualliflarning shaxsiy xotiralari asosida yozilgan. Turk admirali Seydi Ali Raisning "Mir'ot ul- mamolik" (mamlakatlar ko'zgusi) asari, Moskva kompaniyasi elchisi Antoniy Jenkinsonning "Moskvadan Baqtriyadagi Buxoro shahrigacha" nomli esdaliklari muhim ma'lumotlarni aks ettirgan asarlar hisoblanadi¹²⁴. Seydi Ali Raisning "Mir'ot ul- mamolik" asari XVI asr o'rtalarida Turkiya, Hindiston, Afg'oniston, O'rta Osiyo va Eron mamlakatlari, ularning o'zaro kurashlari, dengiz floti, diplomatik aloqalari hamda harbiy munosabatlari haqida yetarlicha ma'lumotga ega bo'lishi, asarning muhim ekanligidan dalolat beradi. Seydi Ali Rais Buxoro hukumdorlarining o'zaro kurashlari va harbiy to'qnashuvlariga ham guvoh bo'lgan.

Hozirgi kunga qadar tarixchi olimlarning bir necha avlodi ilmiy ishlariga nazar solsak, ularda shayboniylar davri davlatchilik, siyosat, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar xususida ayrim fikr va mulohazalar bildirilganligini ko'ramiz. Bu masalalarni tadqiq etish jarayonida olimlar tomonidan uning o'rganilishi, ya'ni tarixshunosligini bir necha guruhlariga bo'lib tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

1. Sovet davri tarixshunosligi;
2. Mustaqillik davri tarixshunosligi;
3. Xorijiy adabiyotlar sharhi.

¹²² Ахмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари. – Тошкент: "Ўқитувчи", 2001. – 215 б.

¹²³ Ахмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари. – Б. 191.

¹²⁴ Сейди Али Раис. Мирот ул-мамолик / Таржима ва изоҳлар муаллифи Ш. Зуннунова. – Т.: Ўз. СССР Фанлар Академияси нашриёти, 1963; Лунин Б.В. Ўзбекистон тарихи манбалари. XVI-XIX аср саёхатчилари, жуғрофиюн олимлари, ёзувчилари. – Т., 1988; Женкинсон А. Россиядаги Москвадан Бақтриядаги Бухоро шаҳригача 1558 йилги саёхат. / Рус тилидан таржима, кириш, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифлари Б.Аминов ва А.Замонов. – Т.: Баёз, 2017.

Shayboniylar davri tarixini o‘rganilishi Rus tarixchi va tadqiqotchi olimlari tomonidan bir necha davr va bosqichlarga bo‘linib o‘rganilgan. Rossiya imperiyasi davrida sharqshunos olimlar V.V. Bartold, A.A. Semyonov va P.P. Ivanovlar XX asr birinchi yarmida Shayboniylar davri masalasi xususida olib borgan izlanishlari natijasida, Shayboniylar davlatining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy rivojlanishining sabablarini tahlil qilganlar¹²⁵. B.B. Bartold mahalliy manbalarni o‘rganib, shayboniy qabilalarining asosini harbiylar tashkil qilgan va ular harbiy madaniyatga ega bo‘lganini aytib o‘tgan¹²⁶. XVI asrdan boshlab Semyonov fikricha, harbiy qabilalarning o‘zaro kurashlari Movorounnahr iqtisodiy va siyosiy hayotiga salbiy ta’sir ko‘rsatganini aytilgan. A.A. Semyonovning “Sovet sharqshunosligi” ilmiy to‘plamidan o‘rin olgan, “O‘rta asr Buxoro unvon va mansablari hamda ular egalarining majburiyatlari haqida Buxoro risolasi” nomli maqolasida harbiy boshqaruv masalalarini tahlil qilgan¹²⁷. Uning fikricha, harbiy lavozimlarning aksariyati shayboniylar davrida emas, temuriylar davrida vujudga kelganini takidlaydi.

Mahalliy tarixchilarda G.A. Pugachenkova¹²⁸ va R.G. Muqminova¹²⁹ tomonidan XX asrning 50-80-yillarida yozilgan ayrim maqolalarda ham tahlil qilinayotgan mavzuimizga tegishli ma’lumotlar keltirib o‘tilgan.

Mustaqillik davrida O‘zbekiston tarixchilari tomonidan o‘zbek xalqi tarixining o‘rganilishi, ochilmagan sahifalari tadqiq etilib, tarixiy voqealar yangi qarashlar asosida yoritilgan. Mustaqillik yillarida nashr etilgan kitoblar, maqolalar va himoya qilingan diserrtatsiyalar ham ushbu davrni o‘rganish uchun muhim omillar hisoblanadi. Tadqiqotchi olim Bo‘riboy Ahmedovning “Tarixdan saboqlar” nomli kitobida Buxoro xonligi tarixiga oid ma’lumotlar juda keng va mazmunli yoritilgan. Shayboniylar tarixi, ma’muriy-harbiy amaldorlar faoliyati haqida ma’lumotlar keltirib o‘tgan. B.Ahmedov Hofiz Tanish Buxoriyning ma’lumotlariga tayangan holda, xonlikda otaliq, naqib, vazir, devonbegi, mushrif, shig‘ovul, eshik og‘asi, parvonachi, sadr singari ma’muriy-harbiy mansablar, miroxur, chuxra og‘asi, tavochi, jarchi, tug‘begi, qo‘rchiboshi, bakovul kabi harbiy lavozimlar mavjud bo‘lganini takidlaydi¹³⁰. Buxoro xonligining XVI-XVII asrlardagi

¹²⁵ Замонов А. Бухоро хонлигининг қўшин тузилиши ва ҳарбий бошқаруви. – Тошкент: 2018. – Б. 25.

¹²⁶ Бартольд В.В. Б 25 Тюрки: Двенадцать лекций по истории турецких народов Средней Азии. – Алматы: Жалын, 1993. – С. 184; Печатается по изданию: Академик В. В. Бартольд. «Сочинения», т. V. Издательство «Наука», Главная редакция Восточной литературы, М., 1968.

¹²⁷ Замонов А. Бухоро хонлигининг қўшин тузилиши ва ҳарбий бошқаруви. – Тошкент: 2018. – Б. 27.

¹²⁸ Пугаченкова Ф.А. К истории костюма Средней Азии И Ирана XV-первой половины XVI вв. По данным миниатюр. // Труды. Среднеазиатского государственного университета им. В.И. Ленина. Т.: Издательство САГУ, 1956. – С. 85-119.

¹²⁹ Мукинова Р.Г. К истории аграрных отношений в Узбекистане XVI в. По материалам “Вакфнаме”. – Т.: Издательство АН Ўз ССР, 1966. – С. 354.

¹³⁰ Ахмедов Б. Тарихдан сабоқлар. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1994.

ijtimoiy-siyosiy hayotida Jo‘ybor xo‘jalarning tutgan mavqei haqida ham ma’lumotlar keltirib o‘tgan. Undan tashqari V.L.Vyatkin va P.P. Ivanovlar o‘zlarining asarlarini Jo‘ybor shaxslarning hayoti va faoliyatiga bag‘ishlaganlar. P.P. Ivanov Jo‘ybor shayxlarning xo‘jalik hujjatlari va qator tarixiy va biografik asarlar, maxsus ilmiy adabiyotlardan foydalangan holda yirik asar yaratgan. Jo‘ybor xo‘jalarning yer-mulki xonlar va sultonlar tomonidan hadya qilingani, ularning aniq miqdorini bilish mumkin bo‘lmagani keltirilgan. Faqatgina Muhammad Islomning ombor va sandiqlarida saqlanayotgan naqd sarmoyalar va turli tuman qimmatbaho matolar, Buxoro, Samarqand, Nasaf, Marv viloyatlarida 300 gk yer-suvga ega bo‘lgani aytilgan¹³¹. Jo‘ybor xo‘jalarning mol-mulki asosini avloddan-avlodga o‘tadigan merosiy mol-mulklar tashkil qilgan. Tariqatdagi va yuqori tabaqasi tufayli jo‘ybor shayxlar davlat ishlarida muhim lavozimlarda faoliyat olib borganlar. Muhammad Islom va xoja Sad XVI asrning ikkinchi yarmida Buxoroda shayxulislom lavozimini egallashgan. Ushbu davrdagi eng mashhur shayxlar Muhammad Islom, xo‘ja Sad va Tojiddin Hasanlar hisoblanib, ularning boyliklari yer-suv va mol-mulkining hisobi yo‘qligi, boshqa hududlarni bosib olishi natijasida ham mulklarining hisobi ortishi, soliqlardan ozod etilgani, ushbu jarayonlar hukumdorlar tomonidan tasdiqlangani keltirilgan¹³². Bo‘riboy Ahmedov “Matlab ut-tolibin” va “Ravzat ar-rizvon” asarlariga tayangan holda ushbu ma’lumotlarni aniq misollar bilan keltirgan. Mustaqillik yillaridagi dissertatsiyalarda ham Shayboniylar sulolasi tarixining o‘rganilishi borasida ma’lumotlar mavjud. Tadqiqotchi X.To‘rayev doktorlik dissertatsiyasida Buxoro xonligining XVI asrdagi ijtimoiy-siyosiy hayotida Jo‘ybor shayxlarning tutgan o‘rni xususida tadqiqot olib borgan. Jo‘ybor shayxlardan Muhammad Islom va shayx Sadlarning shayboniy sultonlar ayniqsa, Abdullaxon bilan munosabatlari, Buxoroni egallashda va boshqa viloyatlarni egallashda unga yordam bergani qisman yoritilgan¹³³. Azamat Ziyov ham o‘zining o‘zbek davlatchilik tarixiga bag‘ishlab yozgan doktorlik dissertatsiyasi va monografiyasida mavzuga doir ayrim masalalarni, xususan, ma’muriy mansablar va ularning vazifalari xususida qisqacha to‘xtalib o‘tgan. Tarixchi olim Akbar Zamonovning “Buxoro xonligining qo‘shin tuzilishi va harbiy boshqaruvi”¹³⁴ nomli kitobi, “Buxoro xonligida siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar”¹³⁵ nomli monografiyalari, Turon hududidagi harbiy-siyosiy

¹³¹ O‘sha kitob. – B. 25.

¹³² Аҳмедов Б. Бухоро хонлигининг XVI-XVII асрлардаги ижтимоий-сиёсий ҳаётида Жўйбор хожаларининг тутган мавқеи ҳақида. // Кўрс асар. – Б. 24-37.

¹³³ Тураев Х. Роль Джуйбарских ходжей в общественно-политической и духовно-культурной жизни Бухарского ханства ХВИ-ХВИИ – веков. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора исторических наук. Ташкент, 2007. – Б. 42.

¹³⁴ Замонов А. Бухоро хонлигининг қўшин тузилиши ва ҳарбий бошқаруви. – Тошкент: 2018

¹³⁵ Замонов А., Тўхтабеков К. Бухоро хонлигида сиёсий ва ижтимоий-иқтисодий жараёнлар. – Тошкент: “Bayoz”, 2018.

jarayonlar, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti shayboniylarning tarixiga bag'ishlangan. Akbar Zamonov kitobida Buxoro xonligining qo'shin tuzilishi va harbiy boshqaruvi haqida shayboniylar davri olimlari tomonidan ko'plab asarlar yaratilgani, Mulla Shodiy ("Fatxnoma"), Kamoliddin Binoiy ("Shayboniynoma"), G'iyossidin Xondamir ("Xabib us-siyar"), Hofizi Tanish Buxoriy ("Abdullanoma") Zahiriddin Muhammad Bobur ("Boburnoma"), Muhammad Solihning ("Shayboniynoma") asarlari¹³⁶ har biri mualliflarning o'sha davrda yashagani, ushbu voqealarning guvohi bo'lgani, va shu zaminda to'plangan ma'lumotlar asosida asarlar yaratilganidan dalolat beradi. Har bir asar voqea-jarayonlarni tarixchi olimlar ma'lumotlar asosida o'rgangan bo'lib, manbashunoslik va tarixshunoslik nazarida tahlil qilganlar. Akbar Zamonov o'zining "Buxoro xonligining qo'shin tuzilishi va harbiy boshqaruvi" kitobida harbiy-siyosiy jarayonlar, ma'muriy-harbiy mansablar va ularning vazifalari, qo'shin tuzilishi, tarkibi va harbiy boshqaruv tartiblari, ta'minoti, harbiy jang paytidagi mashg'ulotlar, harbiy qurollardan foydalanish, jang usullari va strategiyalarini keng mazmunda yoritgan.

Shayboniylar sulolasi davri tarixining o'rganilishiga bag'ishlangan tadqiqotlar xorijiy olimlar tomonidan ham amalga oshirilgan. AQSh va Yevropa mamlakatlarida XX asr boshlarida bu sohada tadqiqotlar olib borilgan. Vengriyalik tadqiqotchi olim Armeniy Vamberi o'zining "Buxoro yoxud Movorounnahr tarixi" asarini Binoiyning "Shayboniynoma" va Xondamirning "Habib us-siyar" asarlariga tayangan holda yaratadi¹³⁷. Buxoro va Movorounnahrning qadimgi davrlaridan XIX asr o'rtalarigacha bo'lgan tarixi bayon etilgan. Arablar Movorounnahrda kirib kelishi natijasida islom dinining yoyilishi, Somoniylar davlati tuzilishi, Qoraxoniylar va G'aznaviylar ta'siri bayon qilingan. Vamberi Movorounnahrni islom madaniyatining markazi sifatida baholaydi. Temuriylar davriga ham to'xtalib, Amir Temur markazlashgan davlat tuzgani, temuriylar davrida Samarqand madaniy markazga aylangani, bu davrda ilm-fan ravnaqi yuksalishi borasida ham qator ma'lumotlar keltirib o'tgan. Asarning yirik qismi Shayboniylar davlati va Buxoro xonligiga bag'ishlanib yozilgan. Shayboniylar sulolasi vakili Muhammad Shayboniynonning Movorounnahrni egallash yo'lidagi harbiy-siyosiy jarayonlari tahlili, Shayboniynonning taxtga kelishi va Samarqand egallanishi, Bobur Mirzo, Ismoil Safaviy va Shayboniynon o'rtasidagi o'zaro urushlar aks etgan davrlarni qamrab olgan¹³⁸. Shayboniynon dastlabki harakatlari bobosidan so'ng parchalanib ketgan hududlarni birlashtirib, davlatni qayta tiklash bo'lgan. Dastavval, Samarqandni egallashga kirishadi. 1500-yilda Shayboniynon va Bobur Mirzo o'rtasida Buxoro-Samarqand orasida Saripul yaqinida jang bo'lib o'tadi.

¹³⁶ Замонов А. Бухоро хонлигининг қўшин тузилиши ва ҳарбий бошқаруви. – Тошкент: 2018. – Б. 8.

¹³⁷ Вамбери А. Бухоро ёхуд Мовароуннахр тарихи. – Тошкент: "INFO CAPITAL GROUP", 2019.

¹³⁸ O'sha asar. – Б. 49.

Bobur Mirzo jangda mag'lub bo'ladi. Mag'lubiyati sababi qilib, yordamchi mo'g'ul askarlarining hiyonatini aytib o'tadi¹³⁹. "Shayboniynoma" mualliflarining fikriga ko'ra Bobur Mirzoning askarlar soni 40 mingni tashkil etsa ham bu Movorounnahr va Andijon tinch hayoti uchun kifoya etmasdi. Shayboniyxon vafotidan keyingi hukumdorlar faoliyati 1510-1597-yillar davomida bayon etilgan.

Shayboniylar tarixining o'rganilishi borasidagi tadqiqotlar o'sha davr manbalari asosida o'rganilib, tarixchi olimlar tomonidan tahlil qilingan. O'zbek davlatchilik gi tarixida muhim o'rin olgan Shayboniylar davlati va Buxoro xonligi tarixining o'rganilishi, uning tashkil topishi, harbiy-siyosiy, ijtimoiy-iqitsodiy, madaniy hayoti, xo'jaligi bilan bog'liq ilmiy tadqiqotlarni olimlar tomonidan amalga oshirilishi, o'zbek xalqining o'rta asrlarda qanday hayot kechirgani va davlatchilik tarixi haqidagi bilimlarimizni yanada mustahkamlashga yordam beradi. Shayboniylarning Movorounnahrda kirib kelishi, hududdagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotiga ta'siri orqali ilm-fan rivojlanishi aks ettirilgan. Shayboniylar davrining ijtimoiy-siyosiy tarixini o'rganish bizga o'sha davrdagi boshqaruv tizimida ham o'zgarishlar bo'lgani, harbiy sohadagi boshqaruvlar, amaldorlar faoliyati, tashqi aloqalar haqida ko'plab ilmiy bilim va ko'nikmalar beradi. Bu boradagi izlanishlar yanada kengaytirish maqsadida shayboniylar davri ma'lumotlarini manbalar asosida tahlil qilish va ularni o'zbek tiliga tarjima qilish orqali o'zbek davlatchilik tarixida bo'lgan voqealarga xolis baho berishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ахмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 2001. – 215 б.
2. Ахмедов Б. Тарихдан сабоқлар. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1994. – 431 б.
3. Бартольд В.В. Б 25 Тюрки: Двенадцать лекций по истории турецких народов Средней Азии. – Алматы: Жалын, 1993. – С. 184.
4. Женкинсон А. Россиядаги Москвадан Бактриядаги Бухоро шахригача 1558 йилги саёхат. / Рус тилидан таржима, кириш, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифлари Б.Аминов ва А.Замонов. – Т.: Баёз, 2017.
5. Вамбери А. Бухоро ёхуд Мовароуннахр тарихи. – Тошкент: “INFO CAPITAL GROUP”, 2019.
6. Замонов А. Бухоро хонлигининг қўшин тузилиши ва ҳарбий бошқаруви. – Тошкент: 2018.

¹³⁹ O'sha asar. – Б. 50.

7. Замонов А., Тўхтабеков К. Бухоро хонлигида сиёсий ва ижтимоий-иқтисодий жараёнлар. – Тошкент: “Bayoz”, 2018. – 160 б.

8. O‘zbekiston tarixi. III qism: Temuriylar, shayboniylar va ashtarxoniylar davri. / Darslik. Zamonov A. – Toshkent: “Bayoz”, 2023. – 672 b.